MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	



YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI

M.M.Muminova

SamISI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni ta'minlash, energetik samaradorlikni oshirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvlar O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasini mustahkamlash bilan birga, kelajak avlodlar uchun sog'lom va toza atrof-muhitni ta'minlash imkonini yaratadi. Shu bois, yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish va moslashtirish asosida milliy xizmat ko'rsatish sohasining salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan barqarorlik tamoyillariga asoslangan zamonaviy konsepsiya va strategiyalarni joriy etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, ekologiya, institutsional muhit, fan-texnika taraqqiyoti, xalqaro tajriba, samaradorlik, iqtisodiy o'sish, yashil soliqlar, yashil innovatsiyalar, yashil xizmatlar, chiqindilarni qayta ishlash, energiya va suv resurslari.

Abstract. Measures aimed at developing the green economy in Uzbekistan are focused on ensuring environmental sustainability, improving energy efficiency, and promoting the rational use of natural resources. These approaches contribute to the country's sustainable development and create opportunities for a clean and healthy environment for future generations. In the context of the transition to a green economy, Uzbekistan needs to adopt modern concepts and strategies based on sustainability principles, drawing on advanced international experience, in order to enhance the potential of the service sector. This article analyzes foreign experience in the effective development of the service sector based on green economy principles.

Key words: green economy, service sector, socio-economic development, ecology, institutional environment, scientific and technological progress, international experience, efficiency, economic growth, green taxes, green innovations, green services, waste recycling, energy and water resources.

Аннотация. Меры, направленные на развитие зеленой экономики в Республике Узбекистан, ориентированы на обеспечение экологической устойчивости, повышение энергетической эффективности и рациональное использование природных ресурсов. Данный подход способствует укреплению устойчивого развития страны и созданию благоприятной и чистой окружающей среды для будущих поколений. В условиях перехода к зеленой экономике Узбекистану необходимо, опираясь на международный передовой опыт, внедрять современные концепции и стратегии, основанные на принципах устойчивости, с целью развития потенциала сферы услуг. В статье рассматривается зарубежный опыт эффективного развития сферы услуг на основе принципов зеленой экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, сфера услуг, социально-экономическое развитие, экология, институциональная среда, научно-технический прогресс, международный опыт, эффективность, экономический рост, зеленые налоги, зеленые инновации, зеленые услуги, переработка отходов, энергетические и водные ресурсы.

KIRISH

Jahon xo'jaligi tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shmoqda. G'arbiy Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalarida milliy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish orqali barqaror rivojlanishga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu hududlarda zamonaviy konsepsiya va



strategiyalarni joriy etish natijasida xizmat ko'rsatish sohasining barqarorligi hamda raqobatbardoshligi izchil oshib bormoqda.

Shunga o'xshash chora-tadbirlar O'zbekiston iqtisodiyotida ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xususan, xizmat ko'rsatish sohasiga strategik sektor maqomi berilib, davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. Natijada ushbu sohaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Hozirgi sharoitda yashil iqtisodiyot talablari asosida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va uni samarali boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani tizimli ravishda umumlashtirish hamda undan O'zbekiston sharoitida oqilona foydalanish yo'llarini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yevropaning ko'plab mamlakatlarida yashil xizmatlarni rivojlantirish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasiga yashil iqtisodiyot tamoyillari faol joriy etilmoqda. Jumladan, Shvetsiyada ekologik toza transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda energiya samarador xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu mamlakatda "Visit Sweden" davlat tashkiloti yashil xizmatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynab, xizmat ko'rsatish obyektlarining barqarorlik standartlariga muvofiqligini monitoring qiladi hamda ularga maxsus ekologik sertifikatlar taqdim etadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda yuzaga kelayotgan iqtisodiy inqirozlar jahon iqtisodiyotining amaldagi rivojlanish modeli muayyan kamchiliklarga ega ekanligini yaqqol namoyon etmoqda. Xususan, mazkur model barqaror iqtisodiy o'sishga ustuvor ahamiyat qaratgan holda, ijtimoiy va ekologik muammolarni yetarlicha inobatga olmaslik bilan tavsiflanadi. Bunday yondashuv atrof-muhitning degradatsiyasi va tabiiy resurslarning kamayishini kuchaytirib, uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish tendensiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, dunyo miqyosida ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yangi iqtisodiy modellarni tadqiq etish jarayoni tobora faollashib bormoqda.

Barqarorlik konsepsiyasi doirasida ekologik omillarni inobatga olgan yangi iqtisodiy modellar shakllanmoqda. Ular qatoriga "yashil iqtisodiyot" (green economy) [2], yashil o'sishga asoslangan iqtisodiyot (green growth) [3], past uglerodli iqtisodiyot (low-carbon economy) [4], bioiqtisodiyot (bioeconomy) [5], iqtisodiyotni yashillashtirish, ko'k iqtisodiyot (blue economy) [6] va boshqa shu kabi tushunchalarni kiritish mumkin. Shuningdek, so'nggi yillarda sirkulyar bioiqtisodiyot [7] kabi yangi "gibrid" modellarning paydo bo'lishi ushbu yo'nalishlarning rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur iqtisodiy modellar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni yashil iqtisodiyotning turli shakllari sifatida talqin etish mumkin.

Yangi iqtisodiy modellar nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki ko'plab davlatlar hamda xususiy sektorning amaliy faoliyatida ham ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqi tomonidan 2030-2050-yillarga mo'ljallangan yashil iqtisodiyot, aylanma iqtisodiyot va bioiqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar qabul qilingan. Parij iqlim kelishuvi esa barcha davlatlarni past uglerodli iqtisodiyotga o'tishga undab, iqlim o'zgarishi bilan kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda xalqaro hamkorlikning muhimligini ta'kidlaydi [8].

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot masalasiga tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, mazkur tushunchaga nisbatan hali umumiy qabul qilingan yagona va aniq ta'rif shakllanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida monografik tahlil usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shvetsiyaning Stokgolm shahri dunyodagi eng barqaror shaharlardan biri hisoblanadi. Shaharda jamoat transportida elektr avtobuslar va velosipedlardan keng foydalaniladi, xizmat ko'rsatish iste'molchilari uchun maxsus yashil xizmatlar, piyodalar yo'laklari va ekologik qulay infratuzilma yaratilgan. Stokgolmdagi ko'plab transport, tibbiyot, ijtimoiy, bank muassasalari hamda xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalar energiya samaradorligi yuqori bo'lgan binolarda joylashgan bo'lib, ularda qayta tiklanuvchi energiya manbalari faol qo'llaniladi. Xizmat ko'rsatish sohasida chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya resurslarini tejashga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etilgan [9].

Shvetsiyaning Gotland orolida ham yashil xizmatlarni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu hududda xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha faoliyat ekologik standartlarga muvofiq olib borilib, tabiatni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Gotland orolida energiya samaradorligini oshirish



va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha innovatsion loyihalar muvaffaqiyatli joriy etilgan. Shvetsiya barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va iqlim o'zgarishining oldini olish yo'lida Arktika muzliklari hamda doimiy muz qatlamlarini saqlab qolishga alohida ahamiyat bermoqda. Mamlakat 2045-yilgacha zararli gazlar chiqindilarini to'liq nol darajaga tushirishni strategik maqsad qilib olgan.

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish nafaqat sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchilar orasida, balki keng jamoatchilik, ayniqsa, yuqori daromadli yevropaliklar o'rtasida ham tobora ommalashib bormoqda. Mahalliy hududlardagi ekologik tozalik va osoyishta muhit orqali tabiat bilan uyg'unlashish imkoniyati yashil xizmat ko'rsatishning asosiy afzalliklaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu yo'nalish iste'molchilarning sog'lom hayot tarziga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, madaniy almashinuvni ham rag'batlantiradi.

Yevropaning ko'plab mamlakatlarida yuqori daromadli aholi tabiiy va osoyishta muhitda dam olish imkoniyati uchun qishloq hududlarini afzal ko'ra boshladi. Bu holat nafaqat tabiatga hurmatni kuchaytiradi, balki mahalliy iqtisodiyot uchun yangi daromad manbalarini yaratadi. Natijada, yashil xizmat ko'rsatish qishloq joylarda yashovchi aholi daromadlarini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Euromonitor International tomonidan tayyorlangan "Barqaror xizmat ko'rsatish uchun eng yaxshi mamlakatlar" hisobotiga ko'ra, dunyo iste'molchilarining 66,4 foizi 2021-yilda o'z kundalik faoliyati orqali atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilgan.

Mazkur hisobotga muvofiq, Skandinaviya mamlakatlari xizmat ko'rsatish sohasida yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Shvetsiya birinchi o'rinda qayd etilgan bo'lib, undan keyingi o'rinlarda Finlyandiya, Avstriya, Estoniya va Norvegiya joylashgan. Euromonitor International tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror xizmat ko'rsatish indeksi (Sustainable Service Index) 99 mamlakatni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik, xatarlarni boshqarish, ustuvor xizmatlarga bo'lgan talab, transport va turar joy imkoniyatlari bo'yicha baholaydi.

Top-20 talikdan tashqarida ham ko'plab Yevropa mamlakatlari, jumladan, Ispaniya, Italiya va Fransiya, shuningdek, Yangi Zelandiya, Boliviya va Kanada kabi davlatlar yashil xizmat ko'rsatishga bo'lgan talabni qondirishga intilmoqda [10].

Ko'plab mamlakatlar yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishni samarali rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani kuchaytirish, unga tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiy talablarni kiritish zarurligini ta'kidlamogda [11]. Shu maqsadda, xizmat ko'rsatish sohasida ekologik menejmentning ajralmas qismi sifatida 1991-yilda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ISO 14001 (EMS – Environmental Management System) standarti joriy etilgan. Ushbu standart korxonalar faoliyatida atrof-muhitga yetkaziladigan zararlarni minimal darajaga tushirishga qaratilgan talablar majmuasini belgilaydi.

ISO 14001 talablariga muvofiqlikni ta'minlash uchun tashkilotlar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha maxsus siyosatni amalga oshirayotganini tasdiqlashi lozim. Mazkur standart resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan choralarni joriy etishni talab qiladi. Ayrim davlatlarda ISO 14001 bilan bir qatorda milliy ekologik menejment standartlari ham ishlab chiqilgan. Jumladan, Buyuk Britaniyada BS 7750, Kanadada CAN/CSA Z750-94, Yevropa Ittifoqida esa EMAS (Eco-Management and Audit Scheme) tizimi joriy etilgan [12-14]. EMAS Yevropa Ittifoqining ekologik boshqaruv va audit tizimi bo'lib, tashkilotlarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentliklari ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda ekologik sertifikatlashtirishga oid 60 dan ortiq xalqaro dastur mavjud bo'lib, ularning har biri o'rtacha 50 ta sertifikatlangan xizmat ko'rsatish obyekti qamrab oladi. Umuman olganda, xizmat ko'rsatish va mehmondo'stlik sohalari uchun 100 dan ortiq ekologik markalar va mukofotlar mavjud.

Ekoxizmat ko'rsatish sohasidagi eng mashhur xalqaro sertifikatlash dasturlaridan biri "Green Globe 21" hisoblanadi. Ushbu dastur Buyuk Britaniyada yaratilgan bo'lib, hozirda 50 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi. "Green Globe 21" chiqindilarni kamaytirish, energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish, oqova suvlarni boshqarish, ekologik savdo siyosati hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi [15]. Dastur doirasida "affiliate", "benchmarked" va "certified" kabi muvofiqlik darajalari belgilangan [16].

Ispaniya yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega mamlakatlaridan biri bo'lib, ushbu soha yillik 200 milliard yevrodan ortiq daromad keltiradi va 2 milliondan ziyod ish o'rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri mavjudligi sababli, Ispaniya hukumati xizmat oqimlarini qayta taqsimlash, barqaror infratuzilmani rivojlantirish va ekologik standartlarni kuchaytirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda [17-18].

Italiyada ham yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat mashhur hududlardagi ekologik yuklamani kamaytirish, piyodalar yo'laklari va ochiq havodagi yashil xizmat turlarini rivojlantirish uchun 94 million yevro miqdorida investitsiya ajratgan [19]. Shuningdek, ekologik talablarga mos mehmonxonalarga "Ospitalità Italiana" sertifikati beriladi. Italiyada javobgar xizmat ko'rsatish konsepsiyasi atrof-muhit, mahalliy jamoalar va madaniy merosni muhofaza qilishga asoslanadi [20-21].



Chexiyada ham yashil xizmat ko'rsatish muvaffaqiyatli rivojlanib, tabiiy va madaniy resurslarni saqlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. "Yashil" mehmonxonalar qurilishi, resurslarni tejash texnologiyalarining joriy etilishi ushbu yo'nalishning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Shvetsiya, Ispaniya, Italiya, Chexiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham yashil xizmat ko'rsatishni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda samarali ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval. Shvetsiya, Ispaniya, Italiya, Chexiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi

Mamlakatlar nomi	Ekologik infratuzilma	Yashil xizmat ko'rsatish dasturlari	Energiya samaradorligi loyihalari	Tabiiy muhitni asrash siyosati
Shvetsiya	Elektr avtobuslar, velosipedlar	Visit Sweden	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	EMAS (Eco-Management and Audit Scheme)
Italiya	"Yashil" poezdlar, ekologik transport	Ospitalità Italiana	Energiyani tejash va chiqindilarni kamaytirish	ISO 14001
Chexiya	Ekologik mehmonxonalar	Ekoxizmat ko'rsatish markazlari	Termoizolyatsiya, qayta ishlash	BS 7750
Buyuk Britaniya	Elektr jamoat transporti	Green Globe 21	Ekologik mehmonxonalar	CAN/CSA Z750-94
Ispaniya	Jamoat transporti, velosipedlar	Biosphere Service, Sustainable Spain	Chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligi	ISO 14001, EMAS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishi energiya samaradorligi, ekologik boshqaruv tizimlari, yashil infratuzilma hamda ekoxizmat ko'rsatish dasturlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, Yevropa Ittifoqining EMAS (Eco-Management and Audit Scheme) tizimi hamda ISO 14001 ekologik menejment standartlari yashil xizmat ko'rsatish obyektlari uchun qat'iy talablarni joriy etish orqali ekologik ta'sirni minimallashtirishga xizmat qiladi. Skandinaviya mamlakatlari esa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalangan holda ekologik mehmonxonalar tarmog'ini rivojlantirib, xizmat ko'rsatish sohasining uglerod izini sezilarli darajada kamaytirishga erishmoqda. Shu bilan birga, Ispaniya va Buyuk Britaniya barqaror yashil xizmat ko'rsatishni sertifikatlash tizimlarini faol joriy etib, xizmat ko'rsatish infratuzilmasining ekologik va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlamoqda.

Shu sababli, yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston ham xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganib, milliy xizmat ko'rsatish salohiyatini rivojlantirish uchun barqarorlik tamoyillariga asoslangan zamonaviy konsepsiya va strategiyalarni joriy etish orqali ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlarini yanada mustahkamlashi zarur.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida xizmat ko'rsatishni samarali rivojlantirish bo'yicha iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish va uni amaliyotga tatbiq etish ijtimoiy hamda ekologik talablarga mos xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, respublikamizda barqaror xizmat ko'rsatishni samarali rivojlantirish modeliga xos bo'lgan jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasidan foydalanish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- ekologik toza transportni rivojlantirish hamda energiya samarador yashil xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni amaliyotga tatbiq etish;
- yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishni samarali rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani kuchaytirish va unga tabiiy resurs obyektlari hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiy talablarni kiritish;
- atrof-muhitni boshqarish va audit tizimlari orqali ekologik standartlarga rioya etilishini ta'minlash, tashkilotlarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish;
- "Green Globe 21" xalqaro sertifikatlash dasturi doirasida ekoxizmat ko'rsatish sohasida ekologik va barqaror xizmat ko'rsatishni rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqib, barqaror xizmat ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ekologik standartlarni joriy etish;
- xizmat ko'rsatish sohasida barqarorlikka erishish maqsadida eng yuqori talabga ega hududlardagi ortiqcha xizmat ko'rsatish oqimini qayta taqsimlash hamda kamroq o'rganilgan, biroq jozibador hududlarga tashriflarni rag'batlantirish orqali tabiiy muhitni muhofaza qilish;



• atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori darajada tashkil etilgan idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yish, ekologik monitoring tizimlarini joriy etish va standartlashtirish jarayonlarini takomillashtirish;

• "yashil" mehmonxonalar qurish orqali iste'molchilarga ekologik toza muhitda yashash imkoniyatlarini yaratish bilan birga, energiya va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini targ'ib etish;

• ekoxizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan yangi tashabbuslar hamda dasturlarni joriy etish.

Mazkur yondashuvlar yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda barqaror xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga xizmat qilib, mamlakatning xalqaro xizmat ko'rsatish bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy hamjamiyatlar manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi. Natijada, xizmat ko'rsatish sohasi uzoq muddatli barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik mezonlariga mos ravishda izchil rivojlantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hall C.M., Gössling S., & Scott, D. (2020). The Routledge handbook of tourism and sustainability. Routledge.
2. Telukdarie A., Katsumbe T., Mahure H., & Murulane K. (2024). Exploring the green economy: A systems thinking modelling approach. Journal of Cleaner Production, 436, 140611. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2023.140611>
3. Sarkodie S.A., Owusu P.A., & Taden J. (2024). Green growth assessment across 203 economies: Trends and insights. Sustainable Horizons, 10, 100083. <https://doi.org/10.1016/j.horiz.2023.100083>
4. Chen H., & Wang L. (2017). Coproducts generated from biomass conversion processes. In H. Chen & L. Wang (Eds.), Technologies for biochemical conversion of biomass (pp. 219-264). Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-802417-1.00009-0>
5. Aguilar A., & Twardowski T. (2022). Bioeconomy in a changing world. EFB Bioeconomy Journal, 2, 100041. <https://doi.org/10.1016/j.bioeco.2022.100041>
6. Nham H., Hoa T.T.M., & Ha L.T. (2023). Influences of digitalization on sustaining marine minerals: A path toward sustainable blue economy. Ocean & Coastal Management, 239, 106589. <https://doi.org/10.1016/j.ocecoaman.2023.106589>
7. Ahmed S.F., et al. (2023). Waste biorefinery to produce renewable energy: Bioconversion process and circular bioeconomy. Energy Reports, 10, 3073-3091. <https://doi.org/10.1016/j.egyr.2023.09.137>
8. United Nations. (2015). Paris Agreement. <https://www.un.org/ru/climatechange/paris-agreement>
9. International Organization for Standardization. (1991). ISO 14001: Environmental management systems – Requirements with guidance for use. ISO.
10. British Standards Institution. (1994). BS 7750: Specification for environmental management systems. BSI.
11. Canadian Standards Association. (1994). CAN/CSA-Z750-94: Environmental management system – Guidelines. CSA.
12. European Commission. (2020). Eco-Management and Audit Scheme (EMAS). <https://ec.europa.eu/environment/emas>
13. Green Globe. (2024). Green Globe certification system. <https://www.greenglobe.com>
14. Skift. (2024, September 26). Inside Spain's investment strategy for sustainable service. <https://skift.com/2024/09/26/inside-spains-investment-strategy-for-sustainable-service/>
15. PYou Europe. (2023). A sustainable future for Spanish service. <https://pyou.eu/a-sustainable-future-for-spanish-service/>
16. Montenapo Daily. (2023, March 13). Turismo sostenibile: Le città più verdi d'Italia. <https://montenapodaily.com/ru/2023/03/13/turismo-sostenibile-ecco-le-citta-piu-verdi-ditalia/>
17. Responsible Tourism Partnership. (2023). What is responsible service? <https://responsibletourismpartnership.org/what-is-responsible-service/>
18. Myseldon News. (2021). Environmental management and sustainable service development. <https://news.myseldon.com/ru/news/index/248442280>
19. Donampa. (2024). Sustainable service and green economy collection. https://donampa.ru/images/sbornik_6-7112024.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>